

**G‘AFURONA MAHORAT SIRLARI****V.Sh.Mamadayupova,**

TDYU, Xorijiy tillar

kafedrası katta o‘qituvchisi

Telefon: +998(93)5004777

e.mail: v.mamadayupova@mail.ru

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, o‘zining mashhur yumoristik asarlari, mazmunli tarjimalari bilan elga tanilgan, o‘zbek farzandi G‘afur G‘ulom haqida va u yozgan mashhur asarlar talqini xususida so‘z yurilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek adabiyoti, janr, qissa, ertak, hikoya, dard, usul, qo‘shiq, mustaqillik.*

G‘afur G‘ulom XX asr o‘zbek adabiyoti maydoniga jo‘shqin she‘rlari, yumorga boy qissa va hikoyalari, go‘zal tarjima asarlari bilan o‘ziga haykal qo‘ygan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U o‘zi yaratgan asarlari ila nafaqat o‘zbek xalqining, balki qardosh – qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlarining ham sevimli ijodkoriga aylangan. G‘afur G‘ulom o‘zi yashayotgan davrning shoiri sifatida goh uni madh qildi, goh qalbi to‘ridagi dardlarni, iztiroblarni turli poetik vositalar bilan tasvirlashga urindi.

Betakror adibimiz 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qorg‘ontegi mahallasida tavallud topdi. Taqdir yozuvchini bolaligidan sinadi. 9 yoshida otasi, 15 yoshida onasi uni bu dunyoda yolg‘iz tashlab ketishdi. Yosh G‘afurni o‘zbek xalqiga ishonib topshirishdi. Darhaqiqat, yillar davomida bu ishonch o‘z aksini topdi. Biz buyuk adabiyot namoyondasini hali xanuz ardoqlaymiz, sevamiz.


U o‘z she‘rlari va asarlari ila yuragimiz tubidan joy olgan. Hayot yo‘llaridagi sinovlar kitobxonlarga qalb malhami bo‘lib so‘zga ko‘chgan. Muammolar esa umrni chuqurroq qadrlash, anglashga sabab bo‘lgan. Uning “Vaqt” she‘rida ushbu so‘zlarimiz isbot topadi.

Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib,

Yashab, umr ko‘rib o‘tguvchilar bor;

Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam — qimmat,

Bir lahza mazmuni bir butun bahor.





...

Aziz asrimizning aziz onlari  
Aziz odamlardan soʻraydi qadrin.  
Fursat gʻanimatdir, shoh satrlar-la  
Bezamoq chogʻidir umr daftarin.

...

Bunday satrlarni chuqur falsafaga choʻmgan, hayotni qadriga yetgan, hamda, umrni sevgan Gʻ. Gʻulomning ijodidangina topish mumkin.

Oʻzbek adabiyotida Gʻafur Gʻulomgacha qissa, hikoya janrlarining ilk koʻrinishlari boʻy koʻrsatgan, ularning yetuk namunalari ham yaratilgan edi. Gʻafur Gʻulom ham “Shum bola”, “Yodgor”, “Netay” qissalari bilan oʻzbek qissachiligini boyitdi. U yaratgan qissa qahramonlari yumorga, kulgiga boyligi, har qanday qiyin vaziyatlarda ham oqilona, baʼzan ayyorona yoʻl topib vaziyatdan chiqib ketishi bilan kitobxonni oʻziga tortadi. Ayniqsa, “Shum bola” qissasi katta-yu kichikning sevimli kitoblaridan biriga aylangan. Yozuvchi qissa va hikoyalari voqeligida davr fojealarini kulguga oʻrab koʻrsatib bera olgan. “Mening oʻgʻrigina bolam”, “Hasan Kayfiy”, “Hiylaiy sharʼiy” hikoyalari ham yozuvchining mahoratini koʻrishimiz mumkin. Har uch hikoyada ham usulning rang-barangligini, turli xil qiyofalarda boʻy koʻrsatgan qahramonlarning xatti-harakatlarini uchratamiz.

“Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasi hayotiy voqelik asosiga qurilgan boʻlib, ocharchilik yillarida roʻzgʻor – gʻor deya atalmish qoʻrgʻonni, oilani boqish uchun qoʻshnisining uyiga oʻgʻrilikka kelgan “oʻgʻrigina bola” hamda davr qiyinchiliklarini anglagan momo suhbatidan iborat. Yozuvchining hikoya yozishdagi badiiy maqsadi ikki qahramon – momo va “oʻgʻrigina bola” dialogiga yuklatilgan. “Hasan Kayfiy” hikoyasi esa yumoristik ertak shaklida yaratilgan boʻlib, ertakka xos anʼanaviy qoliplovchi “bir bor ekan, bir yoʻq ekan...” boshlanmasi bilan boshlanadi, baxtli tugallanma bilan yakunlanadi. Hikoya bosh qahramonlari ertaklarda uchraydigan zolim podsho, hamda zukko, dono Hasan Kayfiy ismli yamoqchi. Yozuvchi bu hikoyada ham oʻzining hikoya yaratishga undagan badiiy istagini mana shu qahramonlarga yuklaydi. Hikoyada tasvirlangan podsho dunyoda jamiki bemaʼndan bemaʼni odatlarni qilib koʻrgan, kurakda turmaydigan musobaqalarni koʻraverib zerikkan shohlardan. Shu bois uning koʻnglini kuniga bir kosa koʻknorining kayfi ham, eng urishqoq itlardan tashkil topgan itlar yoki sekin harakatlanishi bilan barchaga tanilgan toshbaqalar musobaqasi






ham ko'tara olmaydi. O'zi hukmronlik qilayotgan xalqining ahvolini, ularning turmush tarzini yaxshilashni xayoliga ham keltirmaydi. Ammo xalqning pulini talashning ming xil usullarini o'ylab topishga erinmaydi, yangi-yangi soliqlarni joriy qiladi. Odamlarni kulol yasagan tog'oraga o'tqazib "Sig'sa ham bir tanga, sig'masa ham bir tanga" degan soliq ayni mana shu podsho zamonida joriy qilingan. Bu soliqdan maqsad odamlarning keti tog'oraga sig'adimi, yo'qmi buning ahamiyati yo'q, muhimi podshoga soliq to'lashi kerak deganidir. Chorsu bozorida oddiy yamoqchilik qilib rizqini yig'uvchi Hasan Kayfiy ham o'z e'tiqodiga sodiq. Dunyoda o'zi ishonishi mumkin bo'lgan ikki narsasiga o'z aqli va mehnatiga suyanadi. Har qanday qiyin vaziyatda ham o'z e'tiqodidan voz kechmaydi. O'z aqlim va mehnatim bor ekan kunimni ko'raveraman deydi. Podsho esa barcha fuqarolari unga itoat qilishini, podshomiz boshimizda omon bo'sin deyishini istaydi.

Xo'sh, G'afur G'ulomga 70- yillarda ertak janriga murojaat qilishga nima majbur qildi? Bu ertak hikoyaning yozuvchi yashagan davrga nima aloqasi bor?

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, har qanday jasoratli yozuvchi ham sho'rolar davrida yashab turib bu tuzumning kirdikorlarini, insoniyat boshiga yog'dirgan azob-uqubatlarni ochiq-oydin yoza olmas edi. G'afur G'ulom ham shu davrning yozuvchisi, shoiri sifatida bunga botinib qog'oz qoralab yozolmasdi. Shu bois ifoda uchun eng qulay bo'lgan ertak usulidan foydalandi. Ertaklarda ko'p uchraydigan zolim shoh hamda uni mot qiluvchi oddiy xalq vakili. Yozuvchining hikoyani yaratishdagi badiiy maqsadi asar yakuniga borib yanada oydinlashadi. Hasan Kayfiy dardi shu davrdagi o'zbek xalqining dardi edi. Uning tilidan aytilgan: Xalqning ahvoli og'ir, u och va nochor degan gaplari ayni shu vaqtdagi yozuvchining o'z yurtiga qarata aytgan gaplari edi.

Yozuvchi yashagan davrda ham yuqorida turib xalqni boshqarayotgan "podsholar" xuddi ertakdagi podshoh singari: podshohim boshimizda bor bo'ling, deyishini, to'g'ri deb belgilab bergan yo'ldan yurishini istaganlar. Hasan Kayfiy aql va mehnatiga sodiq qolib oxir-oqibat o'z niyatiga erishadi. Yozuvchi ham shu jarayonda yurtda hukmronlik qiluvchi mustabid tuzimning parchalanishini, xalqning ozod bo'lishini istaydi. Mustaqillikka, istiqlolning mayin shabadalariga umid bog'laydi. Hikoyaning tag zamirida istiqlol g'oyalari, dardlaridan iborat ulkan fikrlar yashirilganini ko'ramiz. G'afur G'ulomning kelajak yosh avlodlarga ishonib, asarlari qatiga, tag mazmuniga yashirib ketgan dardlar ekanini anglaymiz. Adibning umr shomlariga yaqin yozilgan





boshqa bir qancha hikoyalarida ham istiqloq g'oyalari nechog'lik mahorat bilan, yashirin ravishda, badiiy teranlikda ilgari surilganini ko'rib qoyil qolmay ilojingiz yo'q. Faqatgina bu yashirin uslubni o'qish, uqish uchun asar yaratilayotgan vaqtda G'afur G'ulom ko'nglidan o'tkazgan dardlarni anglash, uni to'g'ri qabul qila olish lozimdir.

G'afur G'ulom xalq og'zaki ijodini hamda klassik adabiyotning ham bilimdoni edi. U fors tilini mukammal bilganligi bois Rudakiy, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Navoiyning fors tilidagi g'azallarini hamda rus tilidan Shota Rustaveli, Dante Alig'eri, Shekspir asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning forsiy bilimdonligi o'zi yaratgan qahramonlariga ham o'tgan. Uning asar qahramonlari goh forscha qo'shiq xirgoyi qiladi, goh bir-biri bilan fors tilida suhbatlashadi. Biz yuqorida tilga olgan "Hasan Kayfiy" hikoyasi qahramoni Hasan Kayfiy ham doimo bir qo'shiqni xirgoyi qilib yuradi:

"Kishti shikastagonem e bodi shurta, barxez

Boyad ki boz binem on yoru oshnoro..."

Tarjimasi: Kemamiz sinib daryo o'rtasida qolganlarmiz, ey yoqimli shamol, tezroq esib bizga qirg'oqqa chiqishga yordam ber. Koshki o'sha yoru oshnalarimizni qaytadan ko'rolsak.

Adibimiz hayoti va ijodi xalqimiz, davlatimiz tomonidan qadrlanadi. O'zbekiston mustaqillik yillarida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan G'afur G'ulom tavalludining yuz yilligi munosib nishonlandi. Bugun esa shoir haykalining "Adiblar xiyoboni"ga o'rnatilishini xalqimizning sevimli shoiriga bo'lgan chuqur hurmat va e'tiborning yorqin namunasi deya atash mumkindir.

### Foydalanilgan adabiyot:

1. G'afur G'ulom. Yodgor. Qissa va hikoyalar to'plami. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. 356 b.

